

25-Fevral, 2025-yil

ALISHER NAVOIYNING “LISANUT TAYR” ASARIDAGI IBRATLAR VA O‘GITLAR:”HUDHUD” QUSHI MISOLIDA

Faxrutdinova Nodirabegim Jasur qizi

Tosh.Yangi Asr Universiteti.

Filologiya va tillarni o‘qitish (ShMT) 101.24.T. 1-kurs talabasi

ummumanzura@gmail.com +998 90 347 93 39

Ilmiy raxbar: Soliyev Elyorbek Muxammadmo‘sa ug‘li

Annotatsiya. *Ushbu maqolada buyuk bobokalonimiz Navoiy hazratlari “Lisanut-tayr” asarida qushlarning bir-birlari bilan suhbatlari bayon etilgan. Asarning balog‘atli va fazilatli ekani shundaki, muallif insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni, ularning fe‘l-atvorlarini qushlar timsolida mohirlik bilan ochib bera olgan. Biz esa ushbu asardan parchalardan keltirib, uning ham nazmiy ham nasriy shakllarida keltirib, ularni qisqacha bo‘lsa-da, sharhlashga urindik.*

Kalit so‘zlar: *Semurg‘, Hudhud, qumri, g‘aflat, fido, nafs*

LESSONS AND TEACHINGS IN THE WORK "LISANUT TAYR" BY ALISHER NAVAI: IN THE EXAMPLE OF THE "HUDHUD" BIRD

Abstract. *This article describes the conversations of birds with each other in the work "Lisanut-tyre" by our great grandfather Navoi. The mature and virtuous nature of the work is that the author was able to skillfully reveal the relationships between people and their characters in the form of birds. We took excerpts from this work in both poetic and prose forms and tried to interpret them briefly.*

Keywords: *Semurg‘, Hudhud, qumri, g‘aflat, fido, nafs*

Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma‘naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma‘naviyat”

Shavkat Mirziyoyev

Alisher Navoiy-g‘azal mulkining sultoni, serqirra ijodkor, o‘zbek adabiy tili va adabiyotining asoschisi, shoir, olim, ma‘rifatparvar, faylasuf, musiqashunos, davlat arbobidir. Uning “Xamsa”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Mahbub ul-qulub” va “Lisanut-tayr” asarlari dunyo miqyosida tan olinib, uning boy lug‘aviy, kengqamrovliy qarashlari nafaqat bizning yurtimizda balki jahonda yuksak e‘tirof etilib, turli tillarga tarjima qilingan. Aynan “Lisanut-tayr” asarining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, unda adib kengqamrovli mavzularni o‘z ichiga olgan bo‘lib, asosan “Hudhud” qushining boshqa qushlar tomonidan

25-Fevral, 2025-yil

berilgan savollarga oqilona javob berishi orqali ifodalangan. Bu esa o‘z navbatida, o‘quvchining diqqat e‘tiborini tortish bilan bir qatorda, chuqur tafakkur va mulohazaga chorlaydi. Bu asarning barcha g‘oyasi odamning axloqini yuksaltirishga qaratilgan. Asarda “Hudhud” boshqa qushlarga “Semurg” vasfini keltiradi, u tomon borishga chaqiradi. Shunda barcha qushlar: boyo‘g‘li, tovus, kaklik, burgut kabilar, turli hayvonlar unga bora olmaslik uzri bilan murojaat qiladi. “Hudhud” esa ularning har biriga oqilona va to‘g‘ri javoblar bilan ularni hayratga soladi. Bundan ko‘rinadiki, inson bir maqsad qo‘ysa, bu yo‘ldagi barcha mashaqqatlarga sabr qiladi, undan tonmaydi, bahonalar qidirib, o‘zini aldamaydi. Masalan:

Dedi Qumrikim: «Ayo farxundaroy,
G‘aflatu gumrohlarg‘a rahnamoy.
Men qushedurmen chamandin chiqmag‘on,
Dashtu vodiylar sayridin toriqmag‘on.
Za‘fu ojizlik shior o‘lg‘on manga,
Shoxu barg ichra qaror o‘lg‘on manga.
Ne sovug‘ ko‘rgan jahonda, ne isig‘,
Ne irik boshimg‘a kelgan, ne qotig‘.
Bog‘din bog‘ ichra ko‘rguzgon safar,
Shoxlardin barg aro qilg‘on mafar,
Bo‘yla yo‘l ranjin cheka olg‘aymu men,
Bu havas tuxmin eka olg‘aymu men?
Qo‘ydum ersa bu mashaqqat jonima,
Kuch bilan kirmakdurur o‘z qonima»

Qumri aytdiki:

—
Ey dono! G‘aflatda qolgan, yo‘ldan adashganlar rahnamosi! Men shunday bir qushdirmanki, umrim bo‘yicha hech qachon chamandan chiqmaganman, dashtu vodiylar bo‘ylab sayr qilishdan zerikmaganman. O‘z zaifligim va ojizligim bilan mashhurman. Men o‘z uyamni daraxt shoxlari va barglari orasiga quraman. Jahonda na sovuq ko‘rganman, na issiq. Boshimga na mashaqqat tushgan va na qattiqlik totganman. Doimo u bog‘dan bu boqqa, u shoxdan bu shoxga o‘tib ko‘nglimni chog‘ qilganman. Shunday bir holatda bunday qiyin yo‘lga chiqishga havas qilib, bu yo‘l azoblarini ko‘tarishga yaray olamanmi?! Agar jonimni bu mashaqqatga qo‘ysam, majburan o‘z qonimni o‘zim to‘kkan bo‘lib chiqmaymanmi?!

Dedi Hudhud: «Ey zabuni ajzkesh,
Shavqu dard ichra ko‘ngulni ista resh.
Ming yil o‘lsa bog‘ aro manzil sanga,

25-Fevral, 2025-yil

Shox ila barg ichra ne hosil sanga?
G‘ayr ulkim yotibon yo‘lungda shuk,
Qormabon qoningni ichkoy bir mushuk.
Yo birov gaz birla bo‘lg‘ay qotiling.
Ye guruha birla qilg‘ay bismiling.
Mundin o‘zga ayshu koming ne ekin?
Gulshan ichra ehtiroming ne ekin?
Bo‘yla murdor o‘lgucha g‘aflat aro,
Uzni o‘rtab shu‘lai furqat aro.
Er ersang, maqsudi asli istabon,
Yo‘lg‘a kirsang yor vasli istabon.
Ulsang ul yo‘l ichra ranju dard ila,
Jismi zoru joni g‘amparvard ila,—
Yaxshiroq yuz qatla ul ofotdin,
Or qilg‘udek daniy avqotdin».

Hudhudning Qumriga javobi

Ey ojizligi bilan yuz tuban kelgan Qumri, ko‘nglingni dard va shavq bilan yaralagin!
Agar sen ming yil bog‘ ichida manzil tutsang ham, bu tarzda shox va barglar orasida uchib yurishingdan ne hosil?! Baribir yo‘lingni biron-bir mushuk poylab, g‘ippa bo‘g‘adi, qorningni yorib, qoningni ichadi. Yoki birov kamon o‘qi bilan seni otib tushiradi yoki palaxmon toshi bilan joningni oladi. Sen aytayotgan ayshu kom bundan o‘zga narsa emas. Senga gulshan ichra shunday "ehtrom" ko‘rsatishadi. G‘aflatga botib, bu xil harom o‘lib ketgandan ko‘ra, o‘zingni ayriliq shuiasi bilan o‘rtab, haqiqiy erlar kabi asl maqsadni istasang-chi! Yor vaslini izlab yo‘lga tush! Agar sen bu yo‘lda zor jismu g‘amga payvand joningni fido qilib dardu mashaqqat ila olib ketsang, bundan hech bir afsus chekma, chunki sening shu vaqtgacha or qilishga sazovor ofatli ahvoldingdan bu o‘lim yuz qatla yaxshiroqdir!

Bu suhbatdan ham bilishimiz mumkinki, qumri qushi singari o‘z nafsiga qarshi chiqmay, unga qul bo‘lib, hech bir mashaqqatsiz ulkan yutuqlarga erishishni hohlovchi yoki qiyinchiliklardan qochuvchi, dangasalik qiluvchi insonlar hech qachon baxtli bo‘lmaydilar va Robbilari tomonidan keladigan yaxshiliklarni ham sezmaydilar, qadriga yetmaydilar. Hudhud ham bu qushga o‘ziga munosib tarzda javob bergan. Taqdiriga ne yozilgan bo‘lsa, u yo‘lga tushadimi yoki tushmaydimi u narsa albatta yetadi. Niyatni to‘g‘ri qilib, Allohdan madad so‘rab, maqsadi sari olg‘a yurgan insongina ulkan zafarlarga erishadi, bu yo‘ldagi imtihon va mushkulotlarga sabr qiladi va sabri barobarida mukofot va ajr oladi.

Shu bilan Alisher Navoiyning bu asari insonni o‘z nafsiga bilan kurashga, ichki hotirjamlik v ishonchga chorlab, dangasalik, bahonalar izlash, maqsaddan ortga chekinishdan, shu bilan Allohga osiy bo‘lishdan qattiq ogohlantiradi.

25-Fevral, 2025-yil

Kelajak biz yoshlarning qo‘lida ekan, buyuk ajdodlarimizning bizga qoldirgan meroslarini asl ma‘nolarini o‘rganib, ularga to‘g‘ri sharhlar berib kelgusi avlodga yetkazishimiz bizning burchimiz va faxrimizdir!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Alisher Navoiy”, “Lisanut tayr” asari, Toshkent, “Adabiyot va san‘at nashriyoti”, 1991-yil;
2. www.ziyouz.com “Alisher Navoiy”, “Lisanut tayr” asari